

## QO'G'IRCHOQBOZLIKDA QO'G'IRCHOQ TURLARI.

*Najmiddinova Sarvara Samariddinovna  
O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat  
Institutining Farg'ona Mintaqaviy filialining  
Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi  
Ilmiy rahbar: Ravshanjon O'taganov  
[najimmiddinovasarvara@gmail.com](mailto:najimmiddinovasarvara@gmail.com)*

**Annotatsiya;** Tarixdan ma'lumki, qo'g'irchoqlarning "Chodirjamol", "Chodirxayol", "Fonusxayol" kabi turlari mavjud. Bugungi kunga kelib esa asosan qo'lqopli, simli, marionetka-iplar va planshetli turlaridan foydalaniladi. Shuningdek, mazkur maqolada Qo'g'irchoq turlari va paydo bo'lish tarixi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Chodir jamol, Chodir xayol, Fonus xayol, qo'g'irchoqboz, qo'lqopli, marionetka, simli, planshetli.

Osiyoda 15-asrdan Qo'g'irchoq teatriga bo'lgan talab ya'ni xalq orasidagi tomoshalar rivojlanib borgan. Xalq orasida qo'girchoqlarning "Chodirjamol", "Chodirxayol", "Fonusxayol" turlari taraqqiy eta boshlangan.

**CHODIRJAMOL-** 5-asrdan Yurtimizda "Chodir jamol" qo'g'irchoq turidan foydalanilgan. Bu turdag'i qo'g'irchoqlarni qo'lga kiyilgan holatda qo'g'irchoqboz chodir ichidan o'yanatgan.

**CHODIRXAYOL-** bu qo'g'irchoq turi azal-azaldan mavjud. Asosan xalq tomoshalarida, milliy an'analarda foydalanilgan. Har bir qo'g'irchoq turini yasalishi va boshqarishi ham bir-biridan farq qiladi. Bu turdag'i qo'g'irchoqlarni esa boshi, oyoqi, qo'liga bog'langan iplarni tortish orqali boshqargan.

**FONUSXAYOL-** 14-asrda taraqqiy eta boshlagan Fonus xayol - chodir jamol va chodir xayoldan ancha farq qilgan. Asosan qo'girchoqlar taxtadan yassi holatda yasalgan. Tomoshalar esa tunda ko'rsatilgan. Shuningdek, asosan saroylarda, bino ichlarida sahnalashtirilgan, ya'ni parda ortida yoritilgan fonuslar orqali qo'g'irchoqlar soyalari bilan ishlangan.

Qo'g'irchoq tearda to'liq obraz yaratish, bu jonli aktyor qo'lidiagi qo'g'irchoq personajni jonlantirib, uni magsadli harakatga keltirilgan holatiga aytildi. Demak, teatr qo'g'irchog'i tasviriy san'at vakili mo'yqalam ustasi rassom, haykaltarosh hamda teatr san'ati ijodkorlari orqali yaratiladi. Tasviriy san'at asari faqat aktyor qo'lida jonlanib harakatga keladi. Qo'g'irchoqning jonlanishi, ya'ni uni boshqarilishi, bu qo'g'irchoq teatrda yaratilayotgan mukammal ijodning yarmiga teng keladi. Ikkinchisi yarmi esa qog'irchoq teatrining butun imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda, aktyor qo

lida jonlanib obraz yaratish jarayonini o'z ichiga olsagina, tearda haqiqiy ijod qilingan bo'ladi. Hozirgi kunda qo'g'irchoq teatrlarida spektakl yaratish jarayonida ishlataladigan qo'g'irchoq turlari.

1. Qo'Iqopli qo'g'irchoq turi.
2. Trostli qo'g'irchoq turi (simli).
3. Ochiq usulda boshgariladigan (planshetli) qo'g'irchoq turi.
4. Soyasi tushirilib o'ynatiladigan qo'g'irchoq turi.
5. Niqob (maska) bilan ishlanadigan jarayon.
6. Zamonaviy qo'g'irchoq turlari.<sup>1</sup>

Hozirgi kunga kelib esa Qo'g'irchoq teatr spektakllarida asosan qo'lqopli, marionetka, simli, planshetli turlari yordamida ko'plab asarlar sahnalashtiriladi. Albatta, bu turlarning ham yasalishi va o'ynatilishida farqlari mavjud.

QO'LQOPLI - Tarixdan ma'lumki, "Chodir jamol"da qo'g'irchoqlar qo'lga kiyib o'ynatilgan. Demak, qo'lqopli qo'g'irchoq turining paydo bo'lish tarixi "Chodir jamol"ga mansub. Qo'g'irchoqboz qo'lga kiyilgan holda barmoqlarining xatti-harakati orqali asar qahramonini o'ynatadi. Bir vaqtning o'zida qo'g'irchoqboz bir nechta qo'lqopli qo'g'irchoqlarni o'ynata olish imkoniyatiga ega. Manbalarda yozilishicha Polvon Kachal qo'lqopli qo'g'irchoq turining ijrosichisi hisoblanadi.



MARIONETKA - Ushbu qo'g'irchoqlar iplar va metal tayoqlar orqali o'ynatiladi, ya'ni qo'g'irchoqning qo'l va oyoqlari odam kabi harakatga keltirilib boshqariladi.

<sup>1</sup> Maryam Ashurova.Qo'g'irchoq teatri san'atida aktyorlik mahorati. Toshkent-2021



SIMLI - Simli qo'g'irchoq - simli qo'g'irchoqlar qo'lqopli qo'g'irchoq kabi qo'g'irchoqbozning qo'llariga kiyiladi lekin uning qo'llari simlar orqali boshqariladi.



PLANSHETLI - Bu turdag'i qo'g'irchoqlar ochiq usulda boshqariladi va hajm jihatdan ham yirik bo'ladi.



Xulosa qilib aytganda, barcha qo'g'irchoq turlarining o'z o'rni va ahamiyati bor. Bugungi kunda qo'g'irchoqbozlar o'z ustida izlanishlar olib borsa va qo'g'irchoq yasash texnologiyasini mukammal darajada o'rgana olsa, har tamonlama shakllanadi. Zero, beshikdan to qabrgacha ilm izla, - deb bejizga aytilmagan. Ushbu qo'g'irchoqbozlik sohasida ham o'rganish lozim bo'lgan bilimlarning chek-chegarasi yo'q.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhsin Qodirov. O'zbek teatri tarixi. Toshkent-2003
2. Maryam Ashurova.Qo'g'irchoq teatri san'atida aktyorlik mahorati. Toshkent-2021)
3. Wikipedia